



INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISH VA UNDA AHOLINI ISH BILAN BANDLIGINING TA'MINLANISHI BO'YICHA XORIJ TAJRIBASI

PhD Elmonov Bekmurod Ermat o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

ORCID: 0000-0002-9444-458X

eebekmurodbe@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va unda aholini ish bilan bandligining ta'minlanishi bo'yicha xorij tajribasi o'rganilgan. Innovatsiyalar va yangi ish o'rinlarini yaratishda oliy ta'limning rolikidan kelib chiqib bandlikni ta'minlash yo'nalishlarini taqqoslashda ta'lim tizimi sifatini yaxshilash, yangi ish o'rinlarini yaratish, samarali bandlikni ta'minlash, bandlikning yangi shakl va turlaridan foydalanish kabilar bo'yicha qiyosiy tahlil amalga oshirilgan. Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda ITTKIda yuqori malakali ishchilarning bandligi, innovatsiya infratuzilmasining mavjudligi, xususiy sektorning ushbu sohani moliyalashtirishda yuqori ulushga ega ekanligi, kichik va o'rta biznesning innovatsion faolligi asosida RDIE modelidan foydalangan holda innovatsion faoliyatda ish bilan bandlikka ko'maklashishga yo'naltirilgan masalalarga ilmiy-amaliy yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion iqtisodiyot, innovatsion tadbirkorlik, ish haqi, unumdorlik, ish bilan bandlik, ishsizlik, iqtisodiy o'sish.

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ФОРМИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ И ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ

PhD Элмонов Бекмурод Эрмат угли

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека, Республика
Узбекистан Банковско-финансовая академия

Аннотация. В статье исследуется зарубежный опыт формирования инновационной экономики и обеспечения занятости населения в данном процессе. С учётом роли высшего образования в создании инноваций и новых рабочих мест проведён сравнительный анализ направлений обеспечения занятости, включающий повышение качества системы образования, создание новых рабочих мест, обеспечение эффективной занятости, а также использование новых форм и видов занятости. В контексте формирования инновационной экономики разработаны научно-практические подходы, направленные на содействие занятости в инновационной деятельности на основе использования модели RDIE, учитывающей занятость высококвалифицированных работников в сфере научных исследований и опытно-конструкторских разработок (НИОКР), наличие инновационной инфраструктуры, высокую долю частного сектора в финансировании данной сферы, а также инновационную активность малого и среднего бизнеса.

Ключевые слова: инновационная экономика, инновационное предпринимательство, заработная плата, производительность, занятость, безработица, экономический рост.

FOREIGN EXPERIENCE IN THE FORMATION OF AN INNOVATIVE ECONOMY AND THE PROVISION OF EMPLOYMENT

PhD Elmonov Bekmurod Ermat ugli

*National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan*

Abstract. *The article examines foreign experience in the formation of an innovative economy and the provision of employment within this process. Taking into account the role of higher education in fostering innovation and creating new jobs, a comparative analysis of employment promotion strategies is conducted, focusing on improving the quality of the education system, generating new jobs, ensuring productive employment, and applying new forms and types of employment. Within the framework of innovative economic development, scientific and practical approaches aimed at promoting employment in innovative activities are developed based on the RDIE model, which considers the employment of highly skilled workers in research and development (R&D), the availability of innovation infrastructure, the significant role of the private sector in financing this field, and the innovative activity of small and medium-sized enterprises.*

Keywords: *innovative economy, innovative entrepreneurship, wages, productivity, employment, unemployment, economic growth.*

Kirish.

Zamonaviy samarali bandlik siyosati-tashqi va ichki ta'sirlarga moslashuvchan, nobarqaror muhit sharoitida mehnat bozori funksiyasini amal qilishi va rivojlanishini ta'minlovchi, har kimni munosib mehnat qilish imkoniyati bilan ta'minlashidadir. "... Xalqaro valyuta jamg'armasi prognoziga ko'ra, bu yil iqtisodiyotimiz hajmi 130 milliard dollardan oshishi kutilmoqda. ... Bunday natijalarga tadbirkorlik keng qo'llab-quvvatlanayotgani, zamonaviy sanoat majmualari barpo etilayotgani, "yashil" va innovatsion iqtisodiyotga o'tilib, muqobil energiya manbalari yaratilayotgani, axborot texnologiyalari, turizm va moliyaviy texnologiyalar kabi xizmat ko'rsatish tarmoqlari rivojlantirilayotgani zamin bo'lmoqda"¹.

Adabiyotlar sharhi.

XX asrning boshlarida avstriyalik iqtisodchi Yozev Shumpetrning "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi"ga asosan innovatsiya, rivojlanish tushunchalari bilan bog'liq holda innovatsion iqtisodiyot tushunchasi shakllana boshladi. Uning yondashuviga ko'ra innovatsiyalarni "tubdan yangilovchi" jarayon sifatida tadqiq etib, ularning ish bilan bandlikka ta'siri qisqa muddatda salbiy, uzoq muddatda esa ijobiy bo'lishini ifodalaydi. Uning qarashlari so'ngra endogen iqtisodiy o'sish nazariyani shakllanishiga asos bo'lib xizmat qildi. Endogen o'sish nazariyasida bilim, ITTKI va inson kapitali iqtisodiy rivojlanishning asosiy manbayi sifatida qaraladi (Romer, 1990, Aghion va Howitt, 1992).

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib jahonda ilmiy-texnik yuksalishlar postindustrial jamiyatni shakllantirdi va innovatsion iqtisodiyot sektorlarining dominantligini hosil etdi. Innovatsiyaning hayot turmush tarzimizda, iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida keng qo'llanilishi yuz berdi va bunday iqtisodiyot innovatsion iqtisodiyot deb nomlana boshlandi. Ushbu nazariyada innovatsiyalar yuqori malakali mehnatga bo'lgan talabni oshirishi, bandlik tarkibida tarkibiy siljishlarni paydo qilishi bo'yicha metodologik jihatlar yoritilgan. Shu bilan birga milliy innovatsion tizimlar konsepsiyasi innovatsiyalar va bandlikni institutsional yondashuv asosida tahlilliga asoslangan tadqiqotlarda innovatsiyalar samaradorligi davlat,

¹ <https://president.uz/uz/lists/view/8428>

ilmiy markazlar va biznes faoliyati o'rtasidagi hamkorlikka bog'liqligi bo'yicha qarashlar shakllangan (Freeman, 1987, Lundvall, 1992, Nelson, 1993).

MDH mamlakatlarida olib borilgan ilmiy izlanishlarda innovatsion iqtisodiyot masalasi, asosan, o'tish davri iqtisodiyotni sharoitida tadqiq etiladi. Texnologik ukladlar nazariyasiga asoslanib, innovatsion rivojlanish bandlikning yangi shakllarini yuzaga keltirishi va unda davlatning rolini oshirish (Glazyev, 2010), Kondratyevning uzun to'lqinlar nazariyasi innovatsion faollik va bandlik o'rtasidagi davriy bog'liqliklarga asoslanib innovatsion iqtisodiyotni shakllanishida institutsional va davlatning tartibga soluvchi mexanizmiga qaratilgan yondashuvi keng o'rganilgan.

O'zbekistonda esa, innovatsion iqtisodiyot va ish bilan bandlik o'rtasidagi bog'liqlik masalasiga milliy rivojlanish modeli, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti va davlatning strategik roli nuqtayi nazardan keng tahlil etilgan. Jumladan, "innovatsion rivojlanish strategiyasi" da innovatsiyalar bandlikni ta'minlashning muhim manbai sifatida e'tirof etiladi. Shu bilan birga, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda tizimli va institutsional yondashuvni qo'llab, bandlikni ta'minlashda ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini asosiy omili sifatida belgilaydi (Abdurahmonov, 2020, G'ulomov, 2018). Innovatsion iqtisodiyot sharoitida mehnatda bandlikning institutsional va ijtimoiy jihatlarini Autry va Goldsby (2013) tadqiqotlarida asosan ta'minot zanjirlari, logistika innovatsiyalari va ularning mehnat unumdorligi hamda bandlikka ta'siri nuqtayi nazaridan yoritilgan hamda innovatsiyalar mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirib, bandlik sifatining yaxshilanishiga olib kelishini ta'kidlaydi.

Daymond va Stending (1982) innovatsion iqtisodiyot sharoitida noan'anaviy bandlik shakllari, jumladan, moslashuvchan va vaqtinchalik mehnat munosabatlari kengayib borayotganini ta'kidlaydi. Stending tomonidan ilgari surilgan "prekariat" konsepsiyasi innovatsion iqtisodiyotda bandlik barqarorligining pasayishini metodologik jihatdan asoslab beradi. Mehnat bozorida innovatsiyalar ta'sirini chuqur nazariy modellashtirgan olimlar qatoriga Mortensen va Pissarides (2010) kiradi.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida korporativ risklarni boshqarish va strategik qarorlar bandlikka bilvosita ta'sir ko'rsatishini Bell, Kaplan va Mikes (2012) tadqiqotlarida uchratish mumkin. Ular innovatsiyalar bilan bog'liq risklarni to'g'ri boshqarish korxonalarning barqaror rivojlanishini ta'minlab, uzoq muddatli bandlikni qo'llab-quvvatlashini ta'kidlaydi.

Innovatsion iqtisodiyotda raqamli transformatsiya va bilimga asoslangan iqtisodiyotning bandlikka ta'sirini o'rganib, innovatsiyalar yangi kasblar va kompetensiyalarni shakllantirishini ilmiy asoslaydi (Roblek, 2014). Uning fikricha, innovatsion rivojlanish bandlikning miqdoridan ko'ra, uning sifat o'zgarishlariga kuchliroq ta'sir ko'rsatadi. Ularning qarashlariga ko'ra, oliy ta'lim muassasalari innovatsion iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan inson kapitalini shakllantiruvchi asosiy institut bo'lib, ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi bandlikni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

Innovatsion iqtisodiyot ish bilan bandlikni avtomatik oshirmaydi, balki tarkibiy o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Innovatsion siyosat ish bilan bandlik siyosati bilan uzviy bog'liq bo'lsa, ijobiy samara beradi. Inson kapitaliga investitsiyalar innovatsiyalar va bandlik o'rtasidagi asosiy bog'lovchi omildir. Innovatsion iqtisodiyot-bu mamlakat olimlarining ilmiy g'oyalarini amaliyotga joriy etilishini ta'minlovchi va shu asosida innovatsion mahsulot ishlab chiqarishni oshirishga qaratilgan umumiy innovatsion tizim (infratuzilma).

"Iqtisodiy o'sishga erishishning intensiv va ekstensiv o'sishi asosida erishilganligini ham o'lchashda foydalaniladi. Intensiv iqtisodiy o'sishni ta'minlashda aholining ta'lim bilan qamrab olinganlik darajasini va mehnat resurslari sifatini oshirish muhim hisoblanadi. Hozirgi kunda bu jarayon inson kapitali sifatini oshirishga transformatsiyalangan"[14]. Bizning fikrimizcha, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish jarayonida aholini ish bilan bandligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash kompleks yondashuvga asoslanishi lozim. Ma'lumki, aholini ish

bilan bandligi muhim makroiqtisodiy kategoriya hisoblanib, uning darajasi demografik xususiyatlarni hisobga olgan holda baholanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda induksiya, deduksiya, miqdoriy va sifatiy tahlil, taqqoslama va statistik tahlil kabi metodlardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida mehnat bilan bandlikni ta'minlash bo'yicha xorijiy mamlakatlarni tanlashda Global Innovation Index 2007-2025-yillar reytingiga asoslanildi. Innovatsion rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar guruhiga kiruvchi mamlakatlar tajribasi o'rganildi. Global innovatsion indeksda ilgari harakati yuqori bo'lgan mamlakatlarda (Bolgariyadan tashqari) ishsizlik darajasi kamaygan, gender bo'yicha ishsizlar soni o'rtasidagi tafovut yuqori emas. O'rtacha qiymatda hisoblaganda innovatsion iqtisodiy rivojlanish ortishida ayollarning ishsizlik darajasi erkaklarning ishsizlik darajasi bilan taqqoslagan ko'proq kamaygan (1-jadval).

Mamlakatlarning innovatsion rivojlanish darajasi uning samarali bandlik islohotlari bilan o'zaro to'g'ri bog'liqlikka ega. Asosiy e'tibor o'rganilayotgan barcha mamlakatlarda ishsizlikni kamaytirish, har kimga ish bilan ta'minlanish imkoniyatlarini berish, mehnatga haq to'lanishini ta'minlash, mehnat faoliyati darajasi va ishdan qoniqish darajasini oshirish hamda institutsional o'zaro ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishga qaratildi. Mazkur mamlakatlarda bandlikning yangi moslashuvchan turlari bo'yicha aholi bandligi shakllandi, bunday bandlikning yangi shakllari va turlaridan faol foydalanish uchun qonunchilik bazasi yaratildi, munosib mehnat taklifi ortdi, ishchilarga huquq va imtiyozlar kafolatlari berildi.

1-jadval

2007-2025 yillarda Global innovatsion indeksi va ishsizlik darajasi ko'rsatkichlari

Yillar	2007		2025		Reyting o'zgarishi	2007		2024	
Mamlakat	Indeksi	o'rni	indeksi	o'rni		ishsizlik darajasi, %			
						ayol	erkak	ayol	erkak
Shveysariya	4,16	6	66.0	1	-5	6,5	5,8	4,7	4,4
AQSH	5,8	1	61.7	3	2	4,5	4,7	3,6	3,7
Janubiy Koreya	3,67	19	60.0	4	-15	2,4	3,4	3,5	2,9
Germaniya	4,89	2	55.5	11	9	8,8	8,5	3,1	3,7
Xitoy	3,21	29	56.6	10	-19	3,7	4,8	4,9	5,3
Fransiya	4,32	5	53.4	13	8	8,1	7,3	7,2	7,5
Yaponiya	4,48	4	53.6	12	8	3,7	3,9	2,5	2,5
Islandiya	3,66	20	47.0	24	4	2,3	2,2	3,8	3,3
Avstraliya	3,71	17	48.0	22	5	4,7	4,1	3,8	4,0
Italiya	3,48	24	44.9	28	4	7,8	4,8	8,8	6,7
Ispaniya	3,38	27	44.6	29	2	10, 7	6,4	12,7	10,2
Litva	2,71	47	40.8	33	-14	5,0	4,0	6,5	7,6
Bolgariya	2.12	81	39.1	37	-44	8,3	7,0	3,9	4,4
Rossiya	2,60	54	30.3	60	-6	5,6	6,4	5,3	3,3
Braziliva	2,84	40	32.9	52	8	12,5	6,8	8,4	5,6

Manba: Mike Dieterich (2018). Sustainable development as a driver for innovation and employment. International Journal of Innovation and Sustainable Development. Vol. 12, No. 1-2

Eng yuqori bandlik islohotlari Buyuk Britaniya, Daniya, Singapur, Niderlandiya va Finlyandiyada kuzatildi. **Buyuk Britaniyada** yuqori sifatli yangi ish o'rinlarini yaratishga ustunlik beriladi. Jumladan, sog'liqni saqlash, fan va ta'lim sohasining o'zida 7,3 mln.dan ortiq

yangi ish o'rinlarini yaratish rejalashtirilgan. Mehnat bozorida faol va nafaol mehnat siyosati rivojlangan. Mehnat bozorini tartibga solishda davlatning aralashuvining yuqori emasligida ham bandlik islohotining samarasini ko'rsatadi. Masalan, 2012-yilda yoshlar o'rtasida ishsizlikka qarshi kurashish uchun mustaqil notijorat ijtimoiy tashkilot faoliyatini boshlagan. Bu ishsizlarni tezda ishsizlik tuzog'idan chiqishga ko'maklashmoqda. Bundan tashqari qulay soliq stavkasini joriy etishi, qulay investitsiya muhitini shakllantirgani, yuqori samaradorlikka ega venchur ko'rinishdagi moliyalashtirish tizimiga egaligi mehnat unumdorligini oshirish bilan bir qatorda, xususiylar va yuqori texnologik sektorlarda yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qilmoqda.

Masalan, **AQSH**da innovatsion infratuzilmani faol rivojlantirish yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qilmoqda. Davlat va xususiylar sektor texnologik parklar, innovatsiya markazlari, universitet tadqiqot laboratoriyani faoliyatlarini investitsiyalaydi. Bu yangi texnologiyalarni ishlab chiqarish va sotish imkonini beradi. AQSHda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida bandlik darajasini oshirishda quyidagi yo'nalishlarda islohotlar olib borgan:

mutaxassislarni tayyorlash va malaka oshirishga kelsak, Amerika Qo'shma Shtatlari ushbu mavzuga katta e'tibor beradi. Ham davlat, ham xususiylar universitetlarda talabalarning innovatsiyalar va texnologiyalar sohasidagi bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqilgan bo'lib, innovatsion mehnat bozori talablarini qondirish maqsadida mutaxassislar tayyorlash va malakasini oshirish uchun mablag' ajratadi. "... innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda innovatsion kompaniya va startaplarga maxsus soliq imtiyozlari beriladi. Tadbirkorlarga o'z g'oyalarni rivojlantirish va tijoratlashtirishga yordam beradigan inkubatsiya dasturlari va akseleratorlari mavjud bo'lib, bu chora-tadbirlar yangi ish o'rinlari yaratish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishga xizmat qilmoqda" (Roblek, 2014).

Tadqiqot va ishlanmalarni qo'llab-quvvatlashda: fan va texnologiyalar sohasida ilmiy tadqiqot va ishlanmalar faol investitsiyalar jalb etildi. Davlat va xususiylar sektori hamkorligida investitsiyalash amaliyotidan foydalanilmoqda. Bizning fikrimizcha, AQSH tajribasiga ko'ra innovatsion infratuzilmani shakllantirish, ta'lim va mutaxassislar malakasini oshirishga investitsiyalar sarflanishi, ilmiy tadqiqot va ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash innovatsion tadbirkorlikni rag'batlantirmoqda.

Tadqiqot natijalarimizga ko'ra, **Singapurda** turli ta'lim dasturlari, turli darajadagi ta'lim tizimlarini rivojlantirishga va aholini ta'lim bilan qamrab olish darajasini oshirishga keng urg'u berilgan. Kam daromadli oilalarga subsidiyalari beriladi va turli ta'lim dasturlariga jalb etiladi. Singapur eng past ishsizlik darajasiga ega, jumladan, yoshlar o'rtasidagi ishsizlik darajasi ham past. Ishsizlar faollik bilan mehnatda bandlikka jalb etiladi. Shuningdek, tez ish topish imkoniyatini yuzaga keltirish uchun bo'sh ish o'rinlari bazasi shakllantirilgan. Singapurda ishsizlik nafaqasi to'lanmaydi. Mehnat resurslari bo'yicha vazirlik turli iqtisodiy agentliklar bilan hamkorlikda kelgusidagi ishchi kuchi iste'molini mas'uliyat bilan aniqlaydi va unga talab etiladigan ko'nikmalar shakllantiriladi, ta'lim tizimi bilan bog'lanadi.

Janubiy Koreya tajribasi. 1950-yildan beri yuqori texnologiyali sanoatlashgan iqtisodiyotga ega Janubiy Koreya Respublikasi mamlakatlar (AQSH, Germaniya va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari) bilan integratsiyalashgan va iqtisodiy o'sishga erishgan. Iqtisodiyotni bir vaqtning o'zida eksportga va importni o'rnini bosishga yo'naltirib sanoatlashish jarayoni olib borilgan. Og'ir va kimyo sanoatiga keng urg'u bergan. 1962-yilda mamlakat eksporti YaMMning 2,4 foiziga teng bo'lgan bo'lsa 1979-yilda 31 foizga yetgan. Arzon, tartib-intizomli ishchi kuchi va uning faoliyati qattiq nazorat ostida bo'lgan. Kasaba uyushmalarining mehnat faoliyatiga aralashuvi kuchsiz bo'lgan. 1950-1960 yillarda Koreya malakasiz kadrlar, yuqori ishsizlik darajasi va past daromadga ega mamlakat edi [16]. 1960-2000 yillarda ta'limni rivojlantirishga berilgan turtki iqtisodiyotga va ijtimoiy rivojlantirishga ta'sir etuvchi markaziy omil sifatida namoyon bo'lgan. Sanoatlashish jarayonini yuqori ta'limga ega ishchi kuchi bilan boshlagan. Koreya bosqichma-bosqich yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab

olish darajasini oshirib bordi. 1950 yilda 10 ta oliy o'quv yurti faoliyat yuritgan bo'lsa 2010 yilda ularning soni 200 dan oshgan (2020 yilda 203 ta universitetlar va 127 ta kollej) va bu ijobiy samara bergan.

Yangi texnologiyalarga, innovatsiyalarga, raqobatbardoshlikka aholining oliy ta'lim bilan qamrab olingan qismi ko'proq moslashishi birmuncha tez amalga oshadi. Yoshlarning o'rta va oliy ma'lumotlilik darajasi, aholining savodxonlik darajasi ham yuqoriligi ta'minlanadi. Ilmiy tadqiqot va ishlanmalarni investitsiyalash turli sohalarda, xususan, fan, texnologiya va muhandislik sohasida tadqiqot va ishlanmalarga faol sarmoya kiritadi. Shu sababli, bu yangi ish o'rinlari yaratish, iqtisodiyotning innovatsion tarmoqlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Tahlillar natijasiga ko'ra, Janubiy Koreyada startaplarni qo'llab-quvvatlash, malakali ishchi kuchini salmog'ini oshirish, davlat va xususiy sektor o'rtasida hamkorlikni oshirish va ilmiy tadqiqot va ishlanmalarni investitsiyalash keng joriy etilgan.

Xitoy Xalq Respublikasi tajribasi. Xitoy 2002-yilda faol milliy bandlik siyosatini amalga oshirdi. Bandlik siyosatining asosiy maqsadi 1990-yillarning o'rtalaridan boshlab davlat korxonalarida (DK) o'tkazilgan umummilliy islohotlar natijasida 30 millionga yaqin ishdan bo'shatilgan ishchilarni qayta ish bilan ta'minlash muammosini hal qilish edi. Faol milliy bandlik siyosatining tarkibiga quyidagilar kiradi: ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida mehnat intensivligini oshirish bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlariga oid siyosat; tadbirkorlikni rivojlantirish uchun soliq va moliya siyosati, ishga yollashda rekrutment faoliyatidan foydalanish; faol mehnat bozori siyosati va zaif qatlamlarga ko'maklashish maqsadida bandlik subsidiyalari.

Xitoyning innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida bandlik darajasini oshirish uchun quyidagi o'zgarishlar amalga oshirildi: Yangi sanoat va g'oyalarni rivojlantirish va jalb qilish uchun ko'plab maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etildi. Bu zonalarida maxsus soliq imtiyozlari, tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish tartib-taomillari soddalashtirilgan, zamonaviy infratuzilmalardan foydalanish imkoniyati yaratilgan. Bu yangi ish o'rinlari tashkil etish, yangi korxonalarni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratmoqda. Ilmiy innovatsiyalar va tadqiqotlarni faol investitsiyalash texnologiyalarning rivojlanishini rag'batlantiradi. Mamlakatda ko'plab ilmiy parklar, laboratoriyalar va innovatsion markazlar mavjud bo'lib, ularda ilg'or loyihalar moliyalashtiriladi va ilmiy tadqiqotlar olib boriladi. Bu iqtisodiyotning bunyodkorlik tarmoqlarini rivojlantirish va yangi ish o'rinlari yaratishga yordam beradi.

Kichik va o'rta korxonalarga ko'maklashish: innovatsion iqtisodiyot uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ushbu korxonalarning o'sishiga faol yordam beriladi. Davlat dasturlari doirasida tadbirkorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, soliq imtiyozlari berilishini va ularni malaka oshirishini ko'zda tutadi. Bu yangi korxonalar va ish o'rinlari tashkil etilishi, aholi bandligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Innovatsion iqtisodiyot uchun xodimlarni tayyorlash: yangi tarmoqlarda ishlay oladigan xodimlarni tayyorlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Mamlakat oliy ta'lim tizimini rivojlantirish doirasida yangi texnik, muhandislik va boshqaruv tizmi takomillashtirilib ta'lim dasturlari yaratilmoqda. Mavjud kadrlar innovatsion iqtisodiyot talablariga moslasha olishlari uchun ularni qayta tayyorlash dasturlari ham olib borilmoqda. Xitoy Xalq Respublikasida maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etish, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni rag'batlantirish, kichik va o'rta korxonalarni rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyot uchun kadrlar tayyorlash borasida keng ko'lamli o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Yaponiya tajribasi. Import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishni yuqori texnologik rivojlanish asosida innovatsion iqtisodiyotni shakllantirgan. Yuqori qo'shilgan qiymatga ega yuqori texnologiyali mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish, davom etayotgan texnik taraqqiyot va ixtirolar oqimi innovatsion iqtisodiyotning asosi hisoblanadi. Mehnatga layoqatli aholi sonining kamayib borayotgani sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun Yaponiya har bir jamiyat a'zosiga o'z qobiliyatlarini oshirish uchun imkoniyatlarni kengaytirmoqda. Agar bitiruvchilar mehnat bozoriga kirib kelishining ilk

bosqichida doimiy ishga ega bo'lmasa, keyin doimiy ishga joylashish qiyin kechadi. Shu bilan birga, Yaponiyada kasbiy mahoratini rivojlanishi uydin turib malaka oshirishga (in-house training) qaratilgan.

Ko'pchilik yoshlar "Ish topishning muzlik davri"da doimiy ish topa olishmaydi va oqibatda doimiy bo'lmagan mehnatda band bo'ladi. Bunday bandlik ularni kasbiy mahoratni oshirishga maqbul imkoniyatni bermaydi. Huddi shunday holatni bola tarbiyasidan chiqqan ayollar, yolg'iz onalar va boshqalarda ham uchraydi. Bunday nomutanosibliklarni bartaraf etishda mehnat-karta tizimi ("Job-Card System") yaratilgan. Amalda, mehnat kartalari tizimi korxonalar va ta'lim muassasalarida, o'quv markazlarida kasbiy malaka oshirishni taklif qiluvchi va tasdiqlovchi tizim hisoblanib, ish qidirishda yordam beradi. U jamiyatning har bir a'zosiga moslashtirilgan. Barqaror doimiy mehnat faoliyatiga ega bo'lishga imkoniyatni qo'lga kiritishni rag'batlantiradi. Mehnat dasturi tizimning o'zagi bo'lib kasbiy mahoratini rivojlantirish dasturi va amaliy ta'lim dasturidan iborat.

Kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish dasturiga ko'ra, mehnat kartalari tizimi ish joyida amaliy ko'nikmalarni oshirish, bandlikka ko'maklashish davlat markazlarida kasbga oid maslahatlar olish, oliy o'quv yurtlari, kollejlar va texnikumlarda amaliy mashg'ulotlarda malaka oshirish imkoniyatini beradi (kasbiy mahorat sertifikatlariga ega bo'ladi). Shu bilan birga, mehnat kartasida kasbiy malaka sertifikatlar, mehnat daftarchasidagi ma'lumotlar, olingan ma'lumot, malaka va boshqalar to'g'risidagi ma'lumotlar mavjudligi ta'minlanadi. Bu ish qidirish jarayonida kerak bo'lib rekruterlar va ish izlovchilar o'rtasidagi qulaylikni oshiradi. Mehnat kartasining mavjudligi ish izlovchilarni karera konsultatsiyasida qatnashish, malakasini oshirish va mehnat kartasini saqlashga undaydi va javobgarlikni yuklaydi.

"Kasbiy mahoratni rivojlantirish dasturi" o'z ichiga quyidagi 3 turdagi malaka oshirish turlarini qamrab oladi: ish joyida qat'iy belgilangan vaqt davomida malaka oshirish (on-the-job training program); amaliy inson resursini rivojlantirish tizimi; Yaponiya ikkilik (Dual System) tizimi-komission malaka oshirish. Bu tizim ta'lim muassasalari va korxonalar tomonidan malaka oshirish bandlik va inson resurslarini rivojlantirish Yaponiya tashkiloti tomonidan tashkil etiladi. Moliyaviy sabablarga ko'ra dasturda qatnashish imkoniyati cheklanayotganlarga kredit berish yo'lga qo'yilgan. "On-the-job training" dasturining maqsadi doimiy bandlik talab etadigan malaka bilan ta'minlash hisoblanadi. Ushbu dastur asosida malaka oshirish kompaniya xarajatlarini ma'lum qismini grant doirasida qisqartiradi.

Yevropa Ittifoqi tarkibidagi Litva, Bolgariya, Germaniya, Fransiya, Italiya, Ispaniya mamlakatlari tajribasi: Litva mehnatga layoqatli yoshdagi aholining ulushi yuqori bo'lgan sharoitda samarali faol mehnat bozori siyosatida mehnat daromadlarini himoyalash, ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirishga yo'naltirgan bo'lib uning natijasida bandlik darajasini oshirgan. 2013-2020 yillarda real ish haqi 49 %ga ortgan (Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti mamlakatlarida o'rtacha 8%ga ortgan). Jadal ish haqi va bandlik darajasining ortishi iqtisodiy nafaol aholining ishchi kuchi tarkibiga oqib o'tishiga olib kelgan va ish haqining gender tafovuti kamaydi (11,7%). Shunday bo'lsada, mehnat unumdorligi ishlab chiqarishni investitsiyalashning ortda qolishi sababli yuqori sur'atda o'smadi. Aholi soni 1990-2020-yillarda 26 %gacha kamaydi. Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni (16-64 yosh) 29%ga kamaydi va bu 2050 yilga borib 31 %ga kamayishi prognoz qilingan. innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishga xizmat qilgan mexanizmlardan biri mamlakat poytaxtida moliyaviy texnologiya markazlari, startaplar va xalqaro kompaniyalar uchun qulay ekotizim yaratilganligidadir. Yoshlar va katta yoshli aholini yuqori texnologiyalar va raqamli ko'nikmalarga o'rgatishni DXSH mexanizmi asosida amalga oshirilgan. Shamol va qayta tiklanuvchi energetika manbalariga investitsiyani jalb etish asosida ekologik barqarorlik va yashil ish o'rinlari yaratish imkoniyati ortdi. 2012-2022-yillarda innovatsion tadbirkorlik faoliyatining umumiy tadbirkorlik faoliyatidagi ulushi 50%dan oshgan. ITTKI faoliyati natijalaridan foydalanadigan tadbirkorlar soni 3,5 barobarga va unda ish bilan badlar soni 10%ga oshgan. ITTKIga yo'naltirilgan xarajatlar YAIMga nisbatan 0,88 %ni tashkil qildi. Uning

0,55 foizi oliy ta'lim va davlat sektoriga, 0,33 foizi biznes sektoriga taqsimlangan. Innovatsion tadbirkorlarning umumiy xarajatlarining 2,4 foizi ITTKI sohasiga yo'naltirilgan bo'lib uning asosiy qismi mashina va jihozlar bo'yicha innovatsiyalarga yo'naltirilgan. Innovatsion tadbirkorlik faoliyatida bandlar umumiy bandlar tarkibidagi ulushi 2000-2008-yilda 51,2 %dan 2022 yilda 64,3 %ga yetdi, ya'ni 13,1%ga oshgan. Ushbu davrda innovatsion tadbirkorlik faoliyatining umumiy tadbirkorlik faoliyatidagi ulushi mos ravishda 32,5%dan 45,3%ga (+12%) oshgan. Innovatsion jarayonlarga tabiiy, texnologik, tibbiyot va tabiiy fanlarning kollaboratsiyasiga e'tibor yuqori bo'lgan.

Germaniya innovatsiya indeksida doimiy ravishda yuqori o'rinlarni egallab keladi. Germaniyada ilmiy tadqiqotlar va texnologiyalarga yirik sarmoyalarning ortib borishi innovatsiya sohasidagi reyting darajasini yuqori darajada saqlanishiga xizmat qilmoqda. 2011-yilda mamlakatda innovatsiya va bilimga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirish maqsadida "Industry 4.0" tashabbusining amalga oshirish jarayoni boshlandi. Ushbu dastur orqali sanoat va ishlab chiqarish jarayonlari to'liq raqamli transformatsiyaga o'tkazilib, inson va mashinalar o'rtasidagi hamkorlik kuchaytirildi. Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish va texnik bilimlarni joriy etishga investitsiyalar keng jalb etilgan.

Fransiyada ijtimoiy integratsiya va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar, jumladan "La French Tech" tashabbusi orqali yangi texnologik kompaniyalar va startaplarni qo'llab-quvvatlab, innovatsiyaga asoslangan yangi ish joylarini yaratish, inson resurslarini rivojlantirish uchun ta'lim va kasbiy malaka oshirish dasturlari amalga oshirildi. Davlat texnologik inqilobni qo'llab-quvvatlash va barcha aholi qatlamlari uchun ijtimoiy integratsiyani ta'minlashga katta e'tibor qaratdi. Startaplarni qo'llab-quvvatlash, jumladan, innovatsiyaga asoslangan tadbirkorlik uchun qulay muhit yaratish va ta'limning sifatini oshirish orqali ish bilan bandlikni ta'minlashga erishish ko'zlangan.

Ispaniyada texnologik innovatsiya va ish joylarini rivojlantirishda raqamli ko'nikmalarni oshirish va yuqori texnologiyalar bo'yicha dasturlarni amalga oshirishda investitsiya ko'lamlarini oshirdi. 2013- yilda Ispaniyada "Digital Agenda for Spain" dasturini amalga oshirish boshlandi va hozirda ham davom etmoqda. Unga ko'ra raqamli malakalarni oshirish va yuqori texnologiyalarga yo'naltirilgan ish o'rinlarini yaratish maqsadli parametrlari ishlab chilgan. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish, elektron hukumat va onlayn xizmatlarni joriy etish kengaytirildi.

Italiya iqtisodiyotida innovatsiya va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash jarayonida kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, innovatsiyaga yo'naltirilgan startaplarni rag'batlantirishga qaratilgan qator dasturlar amalga oshirildi. Innovatsiyalarga yo'naltirilgan startaplar uchun soliq imtiyozlari va huquqiy yengilliklar kiritildi. Startaplar uchun akseleratorlar, texnoparklar va inkubatorlar tashkil etilishi natijasida yosh tadbirkorlarga yo'naltirilgan o'quv kurslari, biznes maslahatlari va investorlararo hamkorlik kengaydi. Startaplarga moliyalashtirish imkoniyatini oshirishda jamoatchilik mablag'lari, ya'ni kraudfanding platformalaridan foydalanildi. Mamlakatda turizm, dizayn va madaniyat sohalaridagi innovatsiyalar miqyosi ortib borgan. Madaniy yodgorliklar va tarixiy merosini raqamlashtirish, ularni onlayn platformalar orqali dunyoga tanishtirish asosida sayyohlik sanoati uchun yangi imkoniyatlar hosil bo'ldi. Innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali yangi ish o'rinlari yaratish mexanizmidan foydalanilgan. Startaplarning asosiy qismi axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt va raqamli xizmatlarga yo'naltirilganligi bu sohalaridagi mutaxassislariga mehnat talabini oshirib yangi ish o'rinlarini yaratishga zaxiralar oshdi.

Bolgariyada esa, Yelning moliyaviy qo'llab-quvvatlovi asosida sanoat sohasida yangi ish o'rinlarini yaratish va xalqaro tashkilotlar hamda investitsiyalarni jalb qilish orqali innovatsion loyihalarni rivojlantirish amalga oshirilgan. Bundan tashqari, universitet va tadqiqot markazlariga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmini ortishi, axborot texnologiyalari sohasidagi rivojlanish innovatsiya salohiyati imkoniyatlarini oshirdi. Axborot texnologiyalari sohasida ish o'rinlari yaratishni qo'llab-quvvatlangan.

2-jadval.

**Global innovatsion rivojlanish indeksining 50 taligiga kiruvchi mamlakatlari va O'zbekistonda bandlikni ta'minlash
yo'nalishlarining taqqoslama jadvali**

Bandlikni ta'minlash yo'nalishlari	Shveysariya	AQSH	Janubiy Koreya	Germaniya
Ta'lim tizimi sifatini yaxshilash	Davlat va nodavlat ta'lim muassasalari, universitet 3 modeli	Nomdor universitetlar	Keng professional ta'lim	Samarali ta'lim, professionallik
Yangi ish o'rinlarini yaratish	Rasmiy sektorda, munosib mehnat sharoitini ta'minlagan	Dastur mavjud	Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamiga, trening va kasb konsultatsiyasi	Yuqori texnologik ish o'rinlari
Samarali bandlikni ta'minlash	Unumdorlik yuqori, munosib ish o'rinlari yaratilgan	Unumdorlik oshgan, ishchi imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmagan	Innovatsion tadbirkorlik; ITTKI da bandlik	Unumdorlik yuqori va munosib mehnat
Ishsizlik darajasini kamaytirish	Oshgan, ish qidirishni istashmaydi, pensionerlarga qo'shimcha yordamlar mavjud	Ish o'rinlari elektron banki	Ishsizlikni sug'urtalash, bandlik markazlari, turli dasturlar	quyi malakalilar o'rtasida ishsizlik
Bandlikning yangi shakl va turlaridan foydalanish	Uy xizmatchilari, qonuniy himoyalangan	Bandlikni yangi shakllari kent tarqalgan, lekin huquqiy himoyasi kam	Ijtimoiy himoyalangan, huquqiy asoslari mavjud	yangi kirib kelgan bandlikni yangi shakli darhol ko'rib chiqiladi
Inklyuzivlikni oshirish	Yosh o'rtasida diskriminatsiya	Daromadlar va gendir bo'yicha notekislik, yoshlar o'rtasida ishsizlik yuqori	Huquqiy himoyalangan, lekin daromadlar bo'yicha notekislik oshmoqda	Ish haqi farqlari yuqori emas
Hududiy bandlikni ta'minlash natijalarini baholash	Monitoring	Yetarli ma'lumot yo'q	Tizimli monitoring	Muntazam monitoring
Raqamli mehnat platforma-larini rivojlantirish	Mavjud, ayollar bandligi yuqori	Mavjud, ayollar bandligi yuqori	Mavjud, 20-29 yoshlar ayollar va 40-49 yoshdagi erkaklar bandligi yuqori	Mavjud, asosan iste'molchi

2-jadval davomi.

Bandlik yo'nalishlari	Xitoy Xalq Respublikasi	Yaponiya	Italiya	Braziliya	O'zbekiston Respublikasi
Ta'lim tizimi sifatini yaxshilash	Ta'limda sifatli mutaxassislar bo'lsada malakasiz ishchilar ko'p	Kasbga yo'naltirish, ish beruvchilar ehtiyojini hisobi, rivojlangan professional ta'lim	Doimiy takomillashtirish, amaliy ta'lim, oliy ta'lim bitiruvchilari kam, erta maktabni tark etish	Maktab, kollej va ta'lim dasturi, nomdor universitet	"Universitet-3.0", Flagman universitetlarga ega bo'lish, DXSH
Yangi ish o'rinlarini yaratish	Yuqori texnologik ish o'rinlari	Prognozga ko'ra yuqori texnologik ish o'rinlari	Yuqori va past texnologik ish o'rinlari	Xususiy va yuqori texnologik sektorlarda yangi ish o'rinlari	Jamoat ishlariga jalb etish, investitsiya loyihalari asosida o'rta va yuqori texnologiyali ish o'rinlari
Samarali bandlikni ta'minlash	Yetarli ma'lumot yo'q	Aholini ma'lum qatlami yuqori mehnat unumdorlik va munosib mehnatga ega	Mehnat sharoitlari va ish o'rinlari sifatida farq	tarmoqlarni rivojlantirish	Xalqaro konvensiyalarni ratifikatsiyalash va kasb klassifikatorlari
Ishsizlik darajasini kamaytirish	Sug'urta, dastur, o'zini o'zi band etish, rekrutment, shogirdlikni subsidiyalash	Yoshlar ishsizligi past, ishsizni ish topishi qiyin, Job-Card System, Dual System	Egiluvchanlik, ish qidirish oson bo'lsada strukturaviy ishsizlik yuqori	yangi ishga o'tishdagi ko'mak, yoshlarga rekrutment, ishsizlarga maslahat markazlari	Monomarkazlar faoliyati, xorijda ish, "YaMMT" IDAK
Bandlikning yangi shakl va turlaridan foydalanish	Keng qo'llanilmoqda	Yangi egiluvchan bandlik shakllari	huquqiy baza takomillashgan, yangi bandlik shakllari qamrab olingan	yangi egiluvchan bandlik shakllari	Yangi mehnat kodeksi qabul qilindi,
Inklyuzivlikni oshirish	kambag'al ishchilar ko'p	yangi ko'nikma to'liq emas, to'liqsiz ishda bandlik himoyalangan	gendir farqlar mavjud	kambag'al ishchilar sonini kamaytirish	Gender farqlari yuqori, inklyuziv bandlik darajasi yuqori emas
Hududiy bandlikni ta'minlash natijalarini baholash	tanlov asosida monitoring va inspeksiya	Yetarli ma'lumot yo'q	Vertikal boshqaruv organi nazorati	Rivojlangan koordinatsiya tizimi	Mahalliy, hududiy va umumiy darajada hisobini yuritish amaliyoti va bandlikka ko'maklashish tizimi
Raqamli mehnat platformalarini rivojlantirish	Mavjud, umumiy bandlarni 10 %	2022 yilda platforma ishchisini huquqiy maqomi belgilandi	Mavjud	Mavjud	Shakllanmoqda, location-taksi haydovchilari

Global innovatsion rivojlanish indeksining birinchi 50 taligiga kiruvchi mamlakatlarda bandlikni ta'minlash yo'nalishlaridagi asosiy o'xshashlik ta'lim tizimi sifatini yaxshilash, yuqori texnologik ish o'rinlarini tashkil etish, innovatsion tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish; ITTKI da bandlik darajasini oshirish, raqamli mehnat platformalarini rivojlantirishda ko'rish mumkin. Jumladan, Yaponiyada ishsizlik darajasini kamaytirishda kasb karta tizimi va yangi egiluvchan bandlik shakllaridan foydalanishning natijasida yoshlar ishsizligi past darajada saqlanmoqda. 2022 yilda bu mamlakatda ham platforma ishchisini huquqiy maqomi belgilandi (2-jadval).

Bolgariya milliy innovatsiya tizimini yaratilishining huquqiy asoslari, jumladan 2004 yilda "Bolgariya Respublikasining innovatsiya strategiyasi", 2011 yilda "Tadqiqot 2020 ning milliy rivojlanish strategiyasi", 2017 yilda "2017-2030 yillarda ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishning milliy strategiyasi" qabul qilingan. ITTKI ishlarining tarkibida yo'naltirilgan xarajatlar texnologik sohaga 57,6%, tibbiyot sohasiga 17,4%, tabiiy fanlarga 14,1% kabi taqsimlangan. Moliyalashtirish manbasida davlat xarajatlarning ulushi YAIMga nisbatan 0,17%, davlat subsidiyalar esa yillik 4%gacha oshib borgan. Xususiy sektorning ITTKI sohalariga yo'naltirilgan xarajatlari yillik 11%ga ortib YAIMga nisbatan 0,54%ni tashkil etdi. Yuqoridagi xorijiy mamlakatlarning amaliy natijalarini hisobga olgan holda milliy innovatsion tizim tarkibini takomillashtirishni milliy xususiyatlarni hisobga olib joriy etish samaralidir.

Xulosa va takliflar.

Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida ish bilan bandlikni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlarini belgilashning asosiy jihati- mehnat resurslari malakasini oshirish, mehnat qiymatiga bo'lgan talabini hisobga olgan holda soha, tarmoqni aniqlash, ularda aholini ish bilan samarali bandlikni ta'minlash yo'lini ko'rsatishdir.

Xorijiy mamlakatlarda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda ITTKI da yuqori malakali ishchilarning bandligining yuqoriligi, ularning innovatorlik ishlanmalarining amaliyotga joriy etilishini ta'minlashda innovatsiya infratuzilmasining mavjudligi, xususiy sektorning ushbu sohani moliyalashtirishda yuqori ulushga ega ekanligi, kichik va o'rta biznesning innovatsion faolligi asosida izlanish, rivojlanish, innovatsiya va tadbirkorlik modeli (RDIE) dan foydalangan holda innovatsion faoliyatda ish bilan bandlik ta'minlanmoqda.

Mehnat unumdorligi inklyuziv va barqaror rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xizmat ko'rsatish va fan sig'imkorligi yuqori bo'lgan sohalardagi bandlik turlarida mehnat unumdorligi yuqori hisoblanadi. Inklyuziv rivojlanish natijasida kambag'al ishchilarning vazni darhol kamaydi. Beqaror va ijtimoiy himoyasiz ish bilan bandlik darajasi ortib boradi.

O'zbekiston Respublikasining innovatsion iqtisodiyoti bandlikning yangi amaliyotlari, shuningdek, kichik va mikro biznes innovatsiyalarining o'sishi natijasida rivojlanmoqda. ITTKI ni investitsiyalash asosida yaratilgan texnologik innovatsiyaning mahsulot innovatsiyasi yangi mahsulot, yangi ish o'rinlarini va yangi bozorlarni yaratadi, jarayonlar innovatsiyasi ish o'rinlarini qisqartirishi mumkin. Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida iqlim o'zgarishini hisobga olgan holda innovatsiyalarni joriy etish samarali hisoblanadi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Abdurahmonov, Q. X. (2021). Mehnat bozori va bandlikni innovatsion rivojlantirish. Toshkent.

Aghion, P., & Howitt, P. (1992). A model of growth through creative destruction. *Econometrica*, 60(2), 323–351. <https://doi.org/10.2307/2951599>

Autry W.C., Goldsby J.T., Bell E.J. *Global macro trends and their impact on supply chain management*. New Jersey: Pearson Education. -2013.;

Diamond P.A. *Aggregate Demand Management in Search Equilibrium* /

Freeman, C. (1987). *Technology policy and economic performance: Lessons from Japan*. London: Pinter.

- G'ulomov, S. S. (2022). Innovatsion iqtisodiyot va raqamli transformatsiya. Toshkent.*
- Glazyev, S. Yu. (2010). Theory of long-term economic development.*
- Kaplan S.R., Mikes A. Managing risks: a new framework. Harvard Business Review, 90(6).- 2012. 49-60.;*
- Lundvall, B. Å. (1992). National systems of innovation: Towards a theory of innovation and interactive learning. London: Pinter Publishers.*
- Mike Dieterich. Sustainable development as a driver for innovation and employment. International Journal of Innovation and Sustainable Development. 2018. Vol. 12, No. 1-2;*
- Mortensen D. T. Wage Dispersion in the Search and Matching Model / D. T. Mortensen // American Economic Review : Papers & Proceedings. – 2010. – Vol. 100. – P. 338-342.;*
- Nelson, R. R. (Ed.). (1993). National innovation systems: A comparative analysis. Oxford: Oxford University Press.*
- P.A.Diamond // Journal of Political Economy. – 1982. – Vol. 90. – № 5. – P. 881-894.;*
- Pissarides C. Equilibrium Unemployment Theory. Cambridge, MA: MIT Press, 2000.;*
- Roblek V. Impact of knowledge management on sustainable development in the innovative economy. Business system laboratory 2014, January 23-24, 17 p.;*
- Romer, P. M. (1990). Endogenous technological change. Journal of Political Economy, 98(5), S71–S102. <https://doi.org/10.1086/261725>*
- Tolametova Z.A., Elmonov B.E. O'zbekistonda iqtisodiy o'sish va aholi bandligi o'rtasidagi bog'liqlik. Iqtisod va Moliya.-T.: 2021*
- Гарусова Лариса Николаевна, Климова Елена Юрьевна Инновационное развитие современного университета: опыт США // Территория новых возможностей. 2013. №4 (22).*